

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

3-7 YOSHGACHA BOLALARDA YASHIRIN TEMIR TANQISLIK ANEMIYALARNI ANIQLASH FERRITIN TAXLILINI AXAMIYATI

Xamidova Feruza Karimovna

Buxoro Davlat Tibbiyot instituti bolalar kasalliklar propedivtikasi va bolalar
nevrologiyasi kafedراسи асситенти

Annotatsiya: Sayyoramizdagi ko‘plab odamlar organizmda ba‘zi foydali moddalarning yetishmasligidan aziyat chekmoqda. Inson tanasida temirning uzoq vaqt etishmasligi ertami-kechmi "temir tanqisligi anemiyasi"deb nomlanuvchi kasallikning rivojlanishiga olib keladi. Bu kasallik hozirgi kunga kelib bolalar va o‘smirlar qatlamida ham keng tarqalib bormoqda. Bu kasallikning hozirgi kunga kelib ayniqsa yosh organizmlar o‘rtasida ham ko‘plab uchrab turishi ularning faqargina sog‘lig‘iga ta’sir etibgina qolmasdan, balki ularning har tomonlama yetuk darajada rivojlanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Kalit so‘zlar: bolalar, o‘smirlar, temir tanqisligi anemiyasi, tashxis, davolash, temir preparatlari, oldini olish.

THE IMPORTANCE OF FERRITIN ANALYSIS IN DETERMINING HIDDEN IRON DEFICIENCY ANEMIA IN CHILDREN UNDER 3-7 YEARS OF AGE

Abstract: Many people on our planet suffer from the lack of some useful substances in the body. A long-term lack of iron in the human body sooner or later leads to the development of a disease known as "iron deficiency anemia". Today, this disease is spreading widely among children and adolescents. The occurrence of this disease especially among young organisms does not only affect their poor health, but also hinders their development in all aspects.

Key words: children, adolescents, iron deficiency anemia, diagnosis, treatment, iron preparations, prevention.

ЗНАЧЕНИЕ АНАЛИЗА ФЕРРИТИНА В ОПРЕДЕЛЕНИИ СКРЫТОЙ ЖЕЛЕЗОДЕФИЦИТНОЙ АНЕМИИ У ДЕТЕЙ ДО 3-7 ЛЕТ

Аннотация: Многие люди на нашей планете страдают от нехватки в организме некоторых полезных веществ. Длительный недостаток железа в

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

организме человека рано или поздно приводит к развитию заболевания, известного как «железодефицитная анемия». Сегодня это заболевание широко распространяется среди детей и подростков. Возникновение этого заболевания, особенно среди молодых организмов, не только влияет на их плохое здоровье, но и тормозит их развитие во всех аспектах.

Ключевые слова: дети, подростки, железодефицитная анемия, диагностика, лечение, препараты железа, профилактика.

Bugungi kunda jahon miqyosida hamda yurtimizda yurak-qon tomir kasalliklari bilan kechadigan kasalliklarni sifatli davolash uchun samarali dori vositalar ishlab chiqarish ayniqsa, mahalliyashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Temir tanqisligi hamda qon-tomir kasalliklarida qo'llaniladigan sintetik preparatlar ichida temir birikmalari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Temir tanadagi eng muhim mikroelementdir. U sitoxrom oksidaza, katalaza va peroksidazaning kofermenti, shuningdek, gemoglobin, mioglobin va sitoxromlarning tarkibiy qismi sifatida ko'plab metabolik jarayonlarda ishtirok etadi va eritropoezni rag'batlantiradi. Kattalardagi temirga bo'lgan kunlik ehtiyoj 1-2 mg, homilador ayollarda - 2-5 mg, 7 yoshgacha bo'lgan bolalarda - 0,5-1,5 mg. O'rtacha 10% so'riladi, shuning uchun temirga bo'lgan ehtiyojni to'ldirish uchun og'iz orqali qabul qilingan doza kunlik ehtiyojdan 10 baravar oshishi kerak. Bolalik davrida temir tanqisligi anemiyasi barcha anemiyalarning 90 foizini tashkil qiladi. Temir tanqisligi anemiyasining bunday suratda tarqalishi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga, aholi daromadlariga, ovqatlanish xususiyatiga va boshqa omillarga bog'liq. Ko'krak yoshidagi bolalar, o'smirlar, tug'ish yoshidagi ayollar, homilador va emizikli ayollarda bu kasallikning rivojlanish xavfi yuqori. Temir tanqisligi anemiyasi etiologiyasi JSST mutaxassislarining fikriga ko'ra organizmda temir yetishmasligi noto'g'ri ovqatlanishdir. Kamdan kam hollarda surunkali postgemorragik anemiya natijasida rivojlanadi. Bolalar va o'smirlarda temir tanqisligi anemiyasi rivojlanish sabablari:

- oilaning past ijtimoiy-iqtisodiy;
- erta tug'ilish yoki kam vazn;
- bola tug'ilganda temir tanqisligi;
- noto'g'ri ovqatlanish tufayli temir tanqisligi;
- organizmning temirga bo'lgan ehtiyojining ortishi (1 - 3 yoshli bolalar va 14 - 16 yoshli o'smirlarda organizmning tez o'sishi)

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

- sigir sutini ko'p iste'mol qilish yoki tarkibida temir miqdori kam bo'lgan parhez taomlar Bundan tashqari ovqat hazm qilish organlari faoliyatidagi muammolar tufayli ham organizmda temir tanqisligi anemiyasi rivojlanishi mumkin. Temir preparatlari ikki va uch valentli temirning tuzlari yoki komplekslarini, shuningdek ularning boshqa preparatlar bilan birikmalarini o'z ichiga olgan dori vositalari guruhidir. Asosan temir tanqisligi anemiyasini davolash va oldini olish uchun ishlatiladi. Ushbu toifadagi dorilarni bir nechta asosiy guruhlarga bo'lish mumkin: 1. Ikki valentli temir tuzlari asosidagi preparatlar; 2. Uch valentli temirga asoslangan preparatlar; 3. Turli xil temir kompleks birikmalarining preparatlari; 4. Organik birikmalar tuzlari va temir; 5. Temirga asoslangan kombinatsiyalangan preparatlar. [1] Temir tanqisligi kamqonligi davolashda quyidagi temir preparatlari qo'llaniladi: Monokomponent preparatlar tarkibida faqat temir tuzini tutadi. Fe³⁺ va FeOH tutuvchi polimaltozatli kompleks (maltofer), Fe²⁺ glyukonat (ferronal), sulfat (gemofer- vena ichiga yuborish uchun 10-30 ml eritma, gemofer prolangatum, aktiferrin, tardiferon, ferrogradument) fumarat (xeferol), xlorid tutuvchi (gemofer) preparatlar.

Temir tanqisligi anemiyasini keltirib chiqaradigan omillar-Tana uchun mineralni nafaqat oziq-ovqat bilan iste'mol qilish (temir tanada o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi), balki uni o'zlashtirish va ko'chirishning to'g'ri jarayoni ham muhimdir. O'n ikki barmoqli ichakdan temir molekulalarining so'rilishi uchun maxsus oqsil (transferrin) javob beradi. U temirni suyakiligiga yetkazib beradi, bu yerda qizil qon tanachalari sintezlanadi. Haddan tashqari ko'p mineral moddalarning chiqarilishi siydik, najas, ter bezlari orqali sodir bo'ladi. O'smirlikdan to klimaksgacha yoshdagi ayollarda hayzdan qon ketish usuli hali ham mavjud. Kuniga odam organizmidan taxminan 2g temir ajralib chiqadi, ya'ni uni o'rnini to'ldirish uchun oziq-ovqat bilan kam bo'lmagan miqdorda temirni iste'mol qilish kerak. To'qimalarning nafas olishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan muvozanatni saqlash ushbu mexanizmning to'g'ri ishlashiga bog'liq. Temir preparatlari ishlab chiqarishda foydalaniladigan mahsulotlar asosan chet davlatlardan eksport qilinadi. Polimaltozat, folat kislotasini asosan Hindiston va Xitoydan sotib olinadi, chunki bu davlatlarda buy mahsulotlarning bazasi katta. Qon-tomir kasalliklarida qo'llaniladigan dori vositalari, temir birikmalari xaqida ko'plab ilmiy ishlar mavjud. Chunki bu preparatlar uzoq muddatdan buyon keng miqyosda qo'llanilib kelinmoqda. Hoziri

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

kunga kelib yurtimizda ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rivojlantirishga davlatimiz katta e'tibor qaratmoqda.

Temir tanqisligi bir qancha og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Temir tanqisligi uzoq muddat davom etadigan bo'lsa, qaytarilmas oqibatlarga olib kelishi mumkin. Og'ir xollarda jiddiy oqibatlardan biri yosh organizmda psixomotor rivojlanishning kechikishi bilan tavsiflanadi. Bunday xollarda bolalar maktabdarsni o'zlashtirishi jihatdan sustlashadi, tenqurlariga nisbatan rivojlanishda ortda qolishi va o'rta yoshdagi xatti-harakatlarida ko'proq muammolarga duch kelishadi. Temir tanqisligi, shuningdek, jinsiy rivojlanishning kechikishiga olib kelishi, surunkali charchoq sindromini keltirib chiqarishi, immunitet holatiga ta'sir qilishi, yuqumli kasalliklar xavfini oshirishi, endokrin bezlar, asab tizimining ishini buzishi va yana bir qancha og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Voyaga yetgan bolalarda va kattalarda temir tanqisligi natijasida xotiraning pasayishi aniq va sezilarli darajada yomonlashadi, psixikada o'zgarishlar paydo bo'ladi, ayniqsa uning kech shakllanadigan elementlarida (masalan, jamoaviy muloqotga kirishish, do'stlik o'rnatish, qobiliyati). Natijada, insonda asabiylashish xolatlari kuchayadi. Temir tanqisligi anemiyasini davolashda bir qancha chora tadbirlar qo'llash mumkin. Bu kasallikni davolashdan ham oldin temir tanqislik anemiyani oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar ko'rilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Birinchi navbatda temir tanqisligi anemiyasini oldini olishda ovqatlanish muammosidir. Shu sababdan ham har bir voyaga yetgan inson uchun kunlik ovqati tarkibida temir miqdori yetarli miqdorda bo'lishi kerak. Katta yoshdagi inson uchun temirning kunlik ehtiyoji taxminan 1 - 2 mg, bolalar uchun esa 0,5 - 1,2 mgni tashkil etishi kerak. Ovqat hazm qilish traktida oziq - ovqat tarkibidagi temirning 10-15% qismi so'riladi. Chaqaloq hayotining dastlabki 4 oyida yetarli miqdorda temir zaxirasiga ega boladilar. Keyinchalik ko'krak sutida temir miqdorining kamligi sabab 4 oylikdan boshlab qo'shimcha ovqatlarni kiritishdan oldin temir moddasiga boy bo'lgan maxsulotlar (temir moddasiga boy bo'lgan don maxsulotlari) qo'shimchsa sifatida kiritilishi kerak (kuniga 1 kg tana vazniga 1 mg temir). 6 - 12 oylik bolalar kuniga 10 - 11 mg temir o'zlashtirishlari kerak. Buning uchun qo'shimcha ovqatlantirishda go'sht va tarkibida temir moddasini saqlovchi sabzavotlar buyurilishi kerak. Bu oziq - ovqatlardan yetarlicha miqdorda temir moddasi o'zlashtirilmasa, bolaning boshqa organlariga ziyon yetkazmaydigan temir preparatlari va siroplar tavsiya etiladi. 1 - 3 yoshli bolalar kunlik temirga bo'lgan

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

ehtiyojini qondirish uchun 6 - 7 mg miqdorda temir organizmiga qabul qilishlari kerak. Bunda temir moddasini saqlovchi sabzavotlar va C vitaminiga boy bo'lgan mevalar tavsiya etiladi.

Temir tanqisligini dori-darmonlar bilan davolash Tanqislikning o'rta va og'ir shakllarida qo'shimcha sifatida yengil o'zlashtiriladigan temir saqlovchi preparatlar buyuriladi. Dori moddalari birikish turi, dozirovkasi, shakliga qarab farqlanadi: in'ektsiya uchun eritmalar, drajelar, tabletkalar, siroplar, tomchilar, kapsulalar. Peroral (og'iz orqali qabul qilinadigan) preparatlar temirning o'zlashtirilishi xususiyatlari tufayli ovqatdan 1-2 soat oldin qabul qilinadi, shuningdek preparatni ichish uchun suyuqlik sifatida kofein saqlagan ichimliklar (choy, kofe) tavsiya etilmaydi, chunki ular temir o'zlashtirilishini yomonlashtiradi. Dori dozasini qabul qilish oralig'i kamida 4 soat bo'lishi kerak. Dori vositalarini shifokor ko'rsatmasiz, mustaqil tanlagan holda nojo'ya ta'siri tufayli qiyinchiliklarga yoki temirdan zaharlanishga olib kelishi mumkin. Dori dozasini va shaklini bemorning yoshi, kasallikning bosqichi, holat sababchisi, umumiy klinik tasvir va bemorning shaxsiy xususiyatlarini inobatga olib faqat mutaxassis belgilaydi. Doza oraliq qon tahlili natijalari va yoki bemorning ahvoriga qara davolash paytida o'zgartirilishi mumkin. Davolash davomida temir preparatlari gemoglobin darajasi natijalariga qarab 3-4 haftadan bir necha oygacha qabul qilinishi mumkin. Peroral qabul qilinadigan temirni preparatlari orasida ikki va uch valentli temir shakli tanlanadi. Hozirda izlanishlar natijasiga ko'ra, peroral qabul qilinganda ikki valentli temir tavsiya etiladi, chunki u yaxshiroq o'zlashtiriladi va oshqozonga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Bolalar uchun preparatlar tomchi va sirop shaklida buyuriladi, bu yosh bilan bog'liq xususiyatlar va bolalarda temirni kattalarga nisbatan ancha yaxshi o'zlashtirilishi bilan tushuntiriladi. Iloji bo'lsa uzoq muddat qabul qilishda preparatning qattiq shakllarini tanlagan yaxshi, chunki temir saqlovchi preparatlarning suyuq shakllari tish emaliga salbiy ta'sir ko'rsatib, uning qorayib qolishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki temir elementi bolalar va o'smirlar uchun balki, butun insoniyat uchun muhim hisoblanadi. Bu elementning yetishmasligi inson organizmida bir qator buzilishlarga olib keladi. Hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni imkon qadar sog'lom ovqatlanishiga e'tiborli bo'lish, ularning kunlik temirga bo'lgan ehtiyojini imkon qadar qondirish kerak. Har bir oilada ota - onalar o'z farzandlariga e'tiborli bo'lishi va farzandlarining ushbu

МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 5, 31 Май

kasalliklarga chalinmasligi uchun yetarlicha bilim va ko'nikmalarga ega bolishlari kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мельникова О.А., проф. Петров А.Ю, Кутенёва Д.А. Лекарственные препараты на основе соединений железа. Методические указания и материалы по фармацевтической химии. – Екатеринбург: УГМА, 2012. – 49 с.
2. Румянцев А. Г., Коровина Н. А., Чернов В. М. и др. Диагностика и лечение железодефицитной анемии у детей. Методическое пособие для врачей. — М., 2004. — 54 с
3. Регистр лекарственных средств России. // Электронный ресурс// 2024 г. - <https://www.rlsnet.ru/>
4. Ibodov A.Y., Yunusxo'jayev A.N., Ubaydullayev Q.A. Farmasevtik kimyo 2- qism. «VORIS-NASHRIYOT». T.: -2011. 560 b.